

№485, 17-fevral, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 16-fevral holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	415 802 794	(+ 1 917 242)
Sog'ayganlar soni	-	338 616 748	(+ 2 852 979)
Vafot etganlar soni	-	5 855 943	(+ 10 280)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni


	AQSh	-	79 639 934	(+ 97 867)
	Hindiston	-	42 723 558	(+ 30 615)
	Braziliya	-	27 664 958	(+ 123 827)
	Fransiya	-	21 877 555	(+ 142 253)
	Buyuk Britaniya	-	18 393 951	(+ 46 186)
	Rossiya	-	14 480 596	(+ 166 631)
	Turkiya	-	13 079 683	(+ 94 730)
	Germaniya	-	12 692 042	(+ 177 515)
	Italiya	-	12 205 474	(+ 70 852)
	O'zbekiston	-	234 600	(+ 241)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>




O'zbekistonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 16-fevral holatiga ko'ra



Yanvar 2022-yil



Fevral 2022 yil



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2022 y. 15-fevral holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 217 451	7 234
Andijon viloyati	4 319 104	19 658
Buxoro viloyati	2 443 374	9 357
Jizzax viloyati	1 534 787	3 854
Qashqadaryo viloyati	3 470 733	12 324
Navoiy viloyati	1 390 017	4 139
Namangan viloyati	4 150 079	15 671
Samarqand viloyati	5 250 377	6 594
Surxondaryo viloyati	3 509 484	11 921
Sirdaryo viloyati	966 955	5 553
Toshkent viloyati	4 127 601	11 255
Farg'ona viloyati	4 832 059	17 265
Xorazm viloyati	2 631 285	8 292
Toshkent sh.	3 465 420	14 425
Jami	44 308 726	147 542

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>

JSST koronavirus infeksiyalari soni keskin kamayganini ma'lum qildi

O'tgan haftada dunyoda koronavirus infeksiyalari soni 19 foizga kamaydi. Shu bilan birga, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Omicron sub-variantlaridan biri bilan kasallanishning doimiy o'sishini qayd etdi [4].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) seshanba kuni fevral oyida dunyo bo'ylab koronavirus infeksiyalari soni o'tgan haftada deyarli beshdan biriga kamaydi, 7 va 13-fevral oralig'ida 16 millionga yaqin yangi infeksiya qayd etilgan, bu bir hafta oldingiga nisbatan 19 foizga kamayganini ko'rsatadi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, butun pandemiya davomida infeksiyaning eng yuqori cho'qqisi yanvar oyining so'nggi haftasida 22 milliondan ortiq holat qayd etilgan edi. Kasallik fevral oyidan boshlab pasayish tendensiyasi boshlandi. O'tgan haftada Sharqiy Osiyo va Okeaniyadan tashqari deyarli barcha hududlarda

koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish holatlari kamaygani qayd etildi [5].

Shu bilan birga, JSST koronavirusining Omicron subvariantiga oid BA.2 infeksiyalar sonining ortib borayotgani haqida xabar berdi, bu asl nusxaga nisbatan yuqumliroq.

BA.2 hozirda har beshta Omicron holatlarining birdan ko'prog'iga to'g'ri kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, BA.2 infeksiyalarining o'sishi, umumiy

Omicron to'liqining pasayishiga qaramay, davom etmoqda [6].



Janubiy Koreya farmatsevtika kompaniyalari COVID-19 ga qarshi yangi vaktsina yaratishni jadallashtirdi

Janubiy Koreya farmatsevtika kompaniyalari Omikron shtammiga qarshi samarali bo'lishi mumkin bo'lgan birinchi Koreya COVID-19 vaktsinasini ishlab chiqishga hissa qo'shmoqda [7].

Oziq-ovqat va dori vositalari xavfsizligi vazirligining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreya farmatsevtika kompaniyalari tomonidan yaratilgan jami 11 ta COVID-19 vaktsinalari klinik sinovlar uchun ruxsat olgandan so'ng ishlab chiqilmoqda.



Ayrim farmatsevtika firmalari Omikron shtammiga moslashtirilgan vaktsinalarni ishlab chiqishni boshladilar, hamda vaktsinalarning 2021-yil oxiridan boshlab mamlakatda dominant shtammga aylangan ushbu virusga qarshi samarali ekanligini o'rganishmoqda. Hozirda COVID-19 vaktsinasi uchun klinik sinovlarning uchinchi global

bosqichida bo'lgan vaktsina ishlab chiqaruvchi SK Bioscience Co. yetakchilik qilmoqda. Koreyaning ikkinchi yirik oilaviy konglomerati bo'lgan SK Group sho'ba korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan GBP510 vaktsinasi klinik sinovlarning so'nggi bosqichida bo'lgan birinchi mahalliy vaktsinadir.

Shuningdek, Farmatsevtika firmasi, yosh bolalar va o'smirlarda GBP510 ning klinik sinovlarini o'tkazishga, hamda, homilador ayollar uchun klinik sinovlarni tayyorlayotganini ma'lum qildi. Vaktsina ishlab chiqaruvchi, aprel oyida Omicronga mo'ljallangan vaktsinalarining birinchi bosqichidagi klinik sinovlarini boshlash niyatida ekanligini aytdi.



SK Bioscience yilning birinchi choragida GBP510 sinovlarining oraliq natijasini olishni va yilning birinchi yarmiga qadar favqulodda mahalliy dori-darmonlarni tartibga soluvchi tashkilot tomonidan ruxsat olish niyatida ekanligini ma'lum qildi [8].

Gonkong yangi koronavirus to'liqini fonida 3 yoshli bolalarni emlashni boshladi



Gonkong 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga COVID-19 vaksinalarini taklif qilishni rejalashtirmoqda, sababi infeksiya Xitoyning yarim avtonom shahrida tez tarqalmoqda. Vakcina to'g'risidagi habar yangi to'liqinning avj olishidan avval e'lon qilingan edi. Dushanba kuni shaharda rekord darajadagi 2,071 yangi holat qayd etilgan va bu raqam ikki baravar 4,500 dan ortiq ijobiy holatlarga oshishi kutilmoqda [9].

Koronavirusning Omikron shtammiga o'xshash to'liqin biror binoda ikki va undan ko'p bo'lgan shaxslar yig'ilishlarni cheklovchi yangi choralarini qo'llanishiga olib keldi. Bozorlar, do'konlar va sartareshxonalar yopilishi yoki keluvchilar soni cheklanishi kutilmoqda. Gonkong maktablari oflayn o'qitish tizimini to'xtatib turish muddatini 6-martgacha uzaytirdi.

Rasmiylar infeksiya o'choqlari aniqlangan turar-joy binolarida karantin joriy qildi va 18:00 dan keyin ommaviy kechki ovqatlarni taqiqladi. Savdo markazlari va supermarketlarga faqat emlangan odamlar kiritiladi, ibodatxonalar, sartareshxonalar va boshqa korxonalar yopilishi rejalashtirilmoqda.

15-fevralda 3 yosh va undan katta bolalar uchun Xitoyning Sinovac ishlab chiqaruvchisi vaksinasidan foydalanib, koronavirusga qarshi emlash boshlandi. Ilgari emlash uchun yosh chegarasi 5 yosh edi. Gonkong bolalardan tashqari, aholining 73 foizini to'liq emlashga sazovor bo'ldi [10].

Gonkong pandemiyaga qarshi yondashuvni qo'lladi, bunda karantinlar, majburiy niqoblar, holatlarni kuzatish va binolar, tumanlar va butun shaharlar bo'ylab cheklov o'rnatilmoqda. Pekin rasmiylari va Xitoy davlat ommaviy axborot vositalarining ta'kidlashicha, "virus bilan yashash" siyosatini qabul qilish, ba'zi davlatlar qilganidek, Gonkong tibbiyot tizimini yengib chiqadi [11].

Taxminan 7,5 million aholiga ega Gonkongda hozirda 7,000 dan ortiq odam COVID-19 dan davolanmoqda yoki kasalxonaga yotqizishni kutmoqda. Bugungi kunda shaharda 25,000 dan ortiq COVID-19 holatlari va virusdan 220 ga yaqin o'lim qayd etilgan.



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (16.02.2022)
2. Weekly operational update on COVID-19 - 15 February 2022 // <https://www.who.int/publications/m/item/weekly-operational-update-on-covid-19--15-february-2022> (16.02.2022)
3. ВОЗ сообщила о резком снижении числа заражений коронавирусом // <https://www.dw.com/ru/voz-soobshhila-o-silnom-snizhenii-zarazhenij-koronavirusom/a-60793584> (16.02.2022)
4. WHO says new omicron BA.2 subvariant will rise globally, but scientists don't know if it can reinfect people // <https://www.cnbc.com/2022/02/08/who-says-omicron-bapoint2-subvariant-will-rise-globally.html> (16.02.2022)
5. Korean drug firms racing to develop 1st homegrown COVID-19 vaccine // <https://en.yna.co.kr/view/AEN20220215004800320> (16.02.2022)
6. Фармкомпании ускорились для создания первой корейской вакцины от COVID-19 // <https://rossaprimavera.ru/news/1c974dd4> (16.02.2022)
7. Hong Kong to vaccinate 3-year-olds amid new COVID-19 surge // <https://medicalxpress.com/news/2022-02-hong-kong-vaccinate-year-olds-covid-.html> (16.02.2022)
8. Hong Kong rules out citywide lockdown despite Covid spiral // <https://www.cnbc.com/2022/02/15/hong-kong-rules-out-citywide-lockdown-despite-covid-spiral.html> (16.02.2022)
9. В Гонконге начали вакцинацию 3-летних детей на фоне нового всплеска коронавируса // <https://kurer-sreda.ru/2022/02/16/773629-gonkong-privet-3-letnix-detej-na-fone-novogo-vspleska-covid-19> (16.02.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022